

KIKBOKS SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHI KURSANTLARNING SPORT MOTIVASIYASI

Jumaboyeva Sabina G'iyosxon qizi

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchik, O'zbekiston*

Annotasiya: *Mazkur maqolada kikboks bilan shug'ullanuvchi 1-2-bosqich kursantlarning sport motivasiyasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bayon etilgan. Sport motivasiyasini V.F.Sopov metodikasidan foydalangan holda amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *kikboks, kursantlar, sport motivasiyasi, o'quv-mashg'ulotlar*

СПОРТИВНАЯ МОТИВАЦИЯ КУРСАНТОВ ЗАНИМАЮЩИХСЯ КИКБОКСИНГОМ

Жумабоева Сабина Гиёсхан кизи

*Узбекский государственный университет физического
воспитания и спорта Чирчик, Узбекистан*

Аннотация: В данной статье описаны результаты научного исследования, проведенного с целью определения спортивной мотивации курсантов 1-2 разрядов, занимающихся кикбоксингом. Спортивная мотивация реализовывалась по методике В. Ф. Сопова.

Ключевые слова: кикбоксинг, курсанты, спортивная мотивация, тренировка.

SPORTS MOTIVATION OF CADETS ENGAGED IN KICKBOXING

Jumaboyeva Sabina Giyosxan kizi

*Uzbek State University of Physics and Sport
Chirchik, Uzbekistan*

Annotation: *This article describes the results of scientific research conducted to determine the sports motivation of 1st-2nd level cadets engaged in kickboxing. Sports motivation was implemented using V.F. Sopov's methodology.*

Key words: *kickboxing, cadets, sportive motivation, training.*

Mavzuning dolzarbligi Yurtimiz mustaillikka erishgandan kundan boshlab jamiyatning turli sohalarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan mamlakatimiz hukumati tomonidan sportga bo'lgan e'tiborning kuchayganligi ahamiyatga moyil

masalalardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Sportga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi yurtimiz yoshlarini sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi desak xato bo'lmaydi.

Kelajak avlodni sportga bo'lgan qiziqishini va sport tarbiyasiga yo'naltirish, shuningdek bolalarning sportga bo'lgan intilishlarini yanada qo'llab quvvatlash borasidagi keng ko'lamlı islohatlar amalga oshirildi. Barkamol avlodni tarbiyalashda va voyaga yetazishda sportning o'rni beqiyosdir.

R.A.Piloyan,[1984];A.V.Radionov,[2008];A.N.Bleyer,[2009];Z.G.Gapparov,[2010]; S.S.Tajibayev[2017] tomonidan sport motivasiyasini rivojlantirish va shakllantirish yuzasidan ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. O'tkazilgan tadqiqot ishlarida sport motivasiyasini rivojlantirish va shakllantirish bo'yicha harakatli o'yinlarni ta'siri yetarli darajada o'rganilmaganligi tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Hozirgi kunda kikkbokschilarning psixologik holatlariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi,kikkbokschilarning yuqori natijalarni qayd etishiga to'sqinlik qiladi. Kikkbokschilarning psixologik tayyorgarligini aniqlashda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va uni sport amaliyotida tadbıq etish, kikkboks sportining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotni maqsadi: kikkboks bilan shug'ullanuvchi kursantlarning sport motivasiyasini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili asosida muammoning holatini aniqlash;
- kikkbokschilarning psixologik tayyorgarligini aniqlashda kompyuter dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti:kikkbokschilarning o'quv mashg'ulotlari jarayoni.

Tadqiqotning ob'yekti: kikkbokschilarning psixologik tayyorgarligi jarayoni.

Tadqiqot usullari:ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, suhbat, matematik-statik usul.

Tadqiqotni tashkillashtirish. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining 60 nafar birinchi va ikkinchi bosqich kursantlari o'rtasida o'tkazildi.

O'tkazilgan tajribalar natijalari va ularning tahlili.

Hozirgi kunda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'illanuvchi sportchilarning psixologik holatlariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi va bolalarning fikrlari bilan qiziqib ko'rmaslik kontingentni keskin darajada tushib ketishiga sabab bo'lyapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur holat tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Birinchi bosqich kursantlarmizga siz mashg'ulot jarayoning borishidan qoniqayapsizmi deb berilgan savolga respondentlarimizning 21,7% mashg'ulot jarayoning borishidan qoniqmayotganligini, 65,2%i o'zlari aytgan fikrlariga qat'iy ishonch bilan, "xa to'g'ri men mashg'ulotlar, va unda berilayotgan yuklamaladan mamnunman" deya fikrlarini aytib o'tishdi. 13,04%i esa o'zlari aytgan fikrlariga unchalik ishonch bilan bo'lmasada mashg'ulotlardan qoniqayotganligini aytib o'tishdi.

Anketa so'rovnomamizdagi, respondentlarimizga taqdim etilgan keyingi savol quydagicha edi. "Siz mashg'ulot usullarida ayrim narsalarni o'zgartirishni istaysizmi?". Bu savolga ham hamma ishtirokchilar turlicha javob berishdi.

Fikrimizning isboti sifatida natijalarni keltirib o'tamiz, masalan, 34,78%i "yo'q mashg'ulot jarayonidagi usul va vositalarga hech qanday o'zgartirish kiritish kerak emas" degan bo'lsa, 39,13%i esa o'z fikrlariga qat'iy ishonchsiz "ha shundayga" o'xshaydi deb aytib o'tishdi.

1-jadval

1-bosqich kursantlarning sport motivasiyasi ko'rsatkichlari(n=27)

№	Savollar	Yo'q ay emas	mutlaqo	Xa shundayga adi	To'g'ri	Judayam
1.	Men mashg'ulot jarayoninig nidan qoniqyapman.	21,7%		0 %	13,04 %	65,2 %
2.	Mashg'ulot usullarida ayrim larni o'zgartirishni istayman	34,78%		39,13 %	17,39 %	8,69 %
3.	Men bu mavsumda muvaffaqiyat nishga umid qilaman.	0%		17,39 %	30,43%	52,17%
4.	Mashg'ulot jaryonida men har ama faolman	13,04%		17,39%	39,13%	30,39%
5.	Mening e'tirozlarim biror narsani rtirishga ishonchim yo'q	52,17%		30,39%	4,34%	13,04%
6.	Mening mashg'ulotlarim usulining ligiga ishonaman	8,69%		8,69%	30,39%	52,17%
7.	Mashg'ulotdagi vaziyat menda alik qiziqish uyg'otmaydi.	82,60%		0%	8,69%	8,69%

17,39% ishtirokchilar mashg'ulotlar jarayonidagi ayrim qismlarni o'zgartirilishini to'g'ri deb bilsalar, 8,69% kikkokschi kursantlar mashg'ulotlar jarayonidagi ayrim qismlarga o'zgartirish kiritish orqali natijalarni yanada oshirishlariga ishonishlarini takidlagan.

Respondentlarimizgataqdim etilgan navbatdagi ya'ni, "Siz bu mavsumda muvaffaqiyat qozonishingizga ishonasizmi?" deb berilgan savolga quydagicha javob berishdi. Bu mavsumda muvaffaqiyat qozonishlariga to'la ishonishmaganlar soni foizlarga aylantirilganda 17,39%ni tashkil qildi.

Muaffaqiyat qozonishlariga umid qilayotganlar foizi, 30,43%ni tashkil qilgan bo'lsa, muvaffaqiyat qozonishlariga ishonchlari komil, qattiyatlilik bilan javob berganlar soni aksariyat qisimini ya'ni 52,17%ni tashkil qildi.

Mashg'ulot jarayonida "o'zingizni har taraflama faolman deb hisoblaysizmi?" mazmunidagi savolga olingan javoblar foizlar hisobida quydagicha bo'ldi.

Bizga taqdim etilgan javoblardan shu narsani kuzatish mumkinki, mashg'ulot jarayonida o'zlarini faol emasligini takidlaganlar ham bo'ldi va bular, 13,04%ni, mashg'ulot jarayonida o'zlarining faol yoki faol emasliklari haqida aniq bir to'xtamga kelaolmaganlar 17,39%ni tashkil qilgan bo'lsa, mashg'ulot jarayonida "men faolman" deb javob berganlar ham topildi va bu shug'ullanuvchilar fozi, 39,13%ni tashil qildilar.

Bu masalani salbiy taraflari ham aniqlandi, va bu salbiy jihati shundan iboratki, mashg'ulot jarayonida o'zlarini har taraflama faolman deb hisoblaydiganlar nisbatan kam, ya'ni 30,39%ga tushganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Kursantlarga "Siz mashg'ulot jarayoning borishidan qoniqayapsizmi?" deb berilgan savolga respondentlarimizning 21% mashg'ulot jarayoning borishidan qoniqmayotganligini, 25%ni o'zlari aytgan fikrlariga qat'iy ishonch bilan "Ha to'g'ri men mashg'ulotlar, va unda berilayotgan yuklamalardan mamnunman" deya fikrlarini aytib o'tishdi. 13,%ni esa o'zlari aytgan fikrlariga unchalik ishonch bilan bo'lmasada mashg'ulotlardan qoniqayotganligini aytib o'tishdi.

Anketa so'rovnomamizdagi, respondentlarimizga taqdim etilgan keyingi savol quydagicha edi. "Siz mashg'ulot usullarida ayrim narsalarni o'zgartirishni istaysizmi?". Bu savolga ham hamma ishtirokchilar turlicha javob berishdi.

2-jadval

2-bosqich kursantlarning sport motivasiyasi ko'rsatkichlari (n=23)

№	Savollar	Yo'q y emas	mutlaqo Ka ayga di	To'g'ri	udayam
1.	Men mashg'ulot jarayoninig idan qoniqayapman.	21%	25%	13%	41%
2.	Mashg'ulot usullarida ayrim arni o'zgartirishni istayman	34,78%	19,13 %	17,39 %	28,69 %
3.	Men bu mavsumda muvaffaqiyat ishga umid qilaman.	10%	27,39 %	30,43%	22,17%
4.	Mashg'ulot jaryonida men har ma faolman	13,04%	27,39%	29,13%	30%
5.	Mening e'tirozlarim biror narsani tirishga ishonchim yo'q	23%	31%	15%	31%
6.	Mening mashg'ulotlarim usulining igiga ishonaman	10%	28%	30%	32%
7.	Mashg'ulotdagi vaziyat menda lik qiziqish uyg'otmaydi.	52,60%	10,02%	18,69%	18,69%

Fikrimizning isboti sifatida natijalarni keltirib o'tamiz, masalan, 34,78%i yo'q mashg'ulot jarayonidagi usul va vositalarga hech qanday o'zgartirish kiritish kerak emas degan bo'lsa, 39,13%i esa o'z fikrlariga qat'iy ishonchsiz ha shundayga o'xshaydi deb aytib o'tishdi. 17,39% ishtirokchilar mashg'ulotlar jarayonidagi ayrim qismlarni o'gartirilishini to'g'ri deb bilsalar, 8,69% kikbokschi kursantlar mashg'ulotlar jarayonidagi ayrim qismlarga o'zgartirish kiritish orqali natijalarni yanada oshirishlariga ishonishlarini takidlagan.

Respondentlarimizga taqdim etilgan navbatdagi ya'ni, "Siz bu mavsumda muvaffaqiyat qozonishingizga ishonasizmi?" deb berilgan savolga quydagicha javob berishdi. Bu mavsumda muvaffaqiyat qozonishlariga to'la ishonishmaganlar soni foizlarga aylantirilganda 17,39%ni tashkil qildi.

Muaffaqiyat qozonishlariga umid qilayotganlar foizi, 30,43%ni tashkil qilgan bo'lsa, muvaffaqiyat qozonishlariga ishonchlari komil, qattiyatlilik bilan javob berganlar soni aksaryat qisimini yani 52,17%ni tashkil qildi.

“Mashg'ulot jarayonida o'zingizni har taraflama faolman deb hisoblaysizmi?” mazmunidagi savolga olingan javoblar foizlar hisobida quydagicha bo'ldi.

Bizga taqdim etilgan javoblardan shu narsani kuzatish mumkinki, mashg'ulot jarayonida o'zlarini faol emasligini takidlaganlar ham bo'ldi va bular, 13,04%ni, mashg'ulot jarayonida o'zlarining faol yoki faol emasliklari haqida aniq bir to'xtamga kela olmaganlar 17,39%ni tashkil qilgan bo'lsa, mashg'ulot jarayonida men faolman deb javob berganlar ham topildi va bu shug'ullanuvchilar fozi, 39,13%ni tashkil qildilar. Bu masalani salbiy taraflari ham aniqlandi, va bu salbiy jihati shundan iboratki, mashg'ulot jarayonida o'zlarini har taraflama faolma

n deb hisoblaydiganlar nisbatan kam, ya'ni 30,39%ga tushganliklarini ko'rishimiz mumkin.

XULOSALAR

Yuqorida ko'rsatilgan adabiyotlar tahlilida motiv har bir faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Motiv - bu faoliyatga undovchi kuch, ichki qo'zg'atuvchi kuch va tanlangan maqsadga erishish uchun da'vatdir.

Tahlil qilingan adabiyotlardan ma'lum bo'ldiki, kikkokschilarning mashg'ulotga bo'lgan motivasiyasini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni uchratmadik.

Tadqiqot natijasida ma'lum bo'ldiki, kikkokschilarni mashg'ulotdagi faolligi doimiy nazorat qilib ballar orqali ifodalansa va natijalar keng tarzda oshkora etilsa, sportchilarni mashg'ulotga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgarib, mashg'ulotga bo'lgan motivasiyasi oshishi tufayli, texnik va taktik harakatlarni egallashi samaradorligi oshadi. Bu albatta musobaqada o'z samarasini beradi.

Kursantlarning sport motivasiyasini rivojlantirishda samarali ta'sir etadigan vosita va usullarni izlab topish zarurati mavjud.

Yuqorida o'tkazilgan tajribamiz natijalaridan ko'rinib turibdiki 1-bosqich kursantlarning sport motivasiyasi 2-bosqich kursantlarning sport motivasiyasidan yuqori ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bleyer A.N. Psixologicheskiye mexanizmy formirovaniya aktivnosti yedinoborsa. Material v Mejdunarodnoy nauchno – prakticheskoy konferensii psixologov fizicheskoy kultury i sporta. «Rudikovskiy chteniye» 2-5 iyunya. M.: 2009. s. 54.

2. Gapparov.Z.G. Yakka kurashchilarni psixologik tayorlash (Erkin kurash misolida) Toshkent 2010. 143.

3. Piloyan.R.A.Motivasiya sportivnoy deyatelnosti. M.: FiS, 1984. s. 13-14.

4. Radionov. A.V. Praktika psixologii sporta. – Tashkent: Lider – press, 2008.